

MUHAMMADRIZO OGAHIY LIRIKASI

Keldiboyeva Zarnigor Xasanboy qizi

FDU filologiya fakulteti

o'zbek tili yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIX asr Xiva xonligi davrida yashab ijod qilgan lirik shoir, iste'dodli tarjimon, zabardast tarixchi sifatida juda boy merosga ega bo'lgan Muhammadrizo Ogahiy adabiy-ilmiy merosi haqida ma'lumotlar beriladi. Shuningdek, maqolada ijodidan namunalar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: "Ta'viz ul-oshiqin", devon, tablig', g'ulu

Muhammad Erniyozbek o'g'li Ogahiy 1809-yili Xiva yaqinidagi Qiyot qishlog'ida mirob oilasida dunyoga keladi. Uning otasi ham, bobosi ham xonlikdagi obro'li mansablardan biri-miroblik xizmatida bo'lib kelgan. Bu xizmat o'z navbatida uning amakisi mashhur shoir, tarixchi va tarjimon Shermuhammadga, so'ng ancha muddat Muhammadrizoga o'tgan. Ogahiy miroblar sulolasining vakillaridan biridir. 1829-yildan 1857-yilgacha miroblik mansabida bo'lgan Ogahiy otdan yiqilib, qattiq shikastlanadi va iste'foga chiqishga majbur bo'ladi. Umrining oxirigacha butunlay ijodiy ish bilan mashg'ul bo'ladi. Muhammadrizo uch yoshlik vaqtida otadan yetim qolib, zamonasining eng nodir kishilaridan tog'asi Shermuhammad Munis qo'lida tarbiyalanadi, undan adabiy ta'lim oladi.

Ogahiy xalq orasida ko'proq lirik shoir sifatida mashhur. Umrining oxirgi yillarida tuzgan lirik kulliyoti – „Ta'viz ul-oshiqin“ („Oshiqlar tumori“, 1852) bizgacha to'la yetib kelgan. Devon an'anaviy tartibda tuzilgan, 500 ga yaqin g'azal, mustazodlar, 89 muxammas, 5 musaddas, 2 murabba, 4 musamman, 4 tarje'band, 7 qit'a, ruboiylar, 10 tuyuq, 1 mulamma, 4 chiston, 2 muammo, 4 masnaviy, 20 ta'rix, 19 qasida – jami 18000 misradan iborat. Devonga „Ash'ori forsiy“ nomi bilan Ogahiyning fors tilidagi 1300 misra she'ri ham kiritilgan. Devondagi asarlar mazmun-mundariyasi markazida ishq mavzusi turadi. Devondagi she'rlaming umumiy adadi 600 ga yaqin, shulardan 500 ga yaqini g'azallardir. Ko'rinadiki, Ogahiy Alisher Navoiy va Munisdan so'ng eng ko'p g'azal yozgan va bu janr taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan shoirdir. Ogahiy g'azaliyoti o'zbek g'azaliyotining Lutfiy, Navoiy, Bobur, Mashrab, Huvaydo, Munis g'azallaridagi eng yaxshi an'analarning go'zal va ijodiy davomidir. Unda oshiqona mavzuda yozilganlari asosiy o'rin tutadi. Buni devon tarkibida uchrovchi mana bu bayt ham tasdiqlaydi:

Ogahiy holini gar ishq ichra bilmak istasang,

Chashmi ibrat birla dardangiz devonimga boq.

Ogahiy she'riyati, jumladan, g'azaliyoti dunyoviy va ilohiy ishqni, inson

komilligini, axloqiy go‘zaliigini birlikda ifodalovchi asarlardir. U har bir asarini ma’rifat nurlari bilan go‘zallashtirib, ulaming tarbiyaviy ahamiyatini oshirishga harakat qiladi.

Ushshoq ko‘nglun olg‘ali xulqu malohat shart erur,

Yo‘q sarvaso qomatu ruxsorayi gulfomi shart, —

deydi shoir.

Ogahiy g‘azallarida, umuman, lirik she’rlarida aqlga sig‘maydigan mubolag‘alar, uning tablig‘, ig‘roq, g‘ulu kabi aqlan ishonish mumkin bo‘lmagan, o‘ta kuchaytirilgan, ba’zan aqlbovar qilmaydigan turlari uchraydi.

Ohimdan uchub havog‘a tog‘lar,

Yor yuzi sarosar o‘ldi ho

Oyla tofon xez bo‘ldi ashku ohimdin bori,

Yor yuzin g‘arq aylab etdi mavj urar gardunda suv.

Ogahiy arabcha “chiroyli dalillash” ma’nosini anglatuvchi, badiiy asarlarda tasvirlanayotgan voqea-hodisaning shoirona sababini ham ko‘rsatib ifodalash san’ati hisoblangan “husni ta’lil” usuliga ham tez-tez murojaat etib, baytlar yaratadi. Bunda oy, quyosh kabi samoviy hodisalar harakati, holatidan foydalanadi.

Falak mehru bulutdin ko‘zga chekmish pardai mushkin,

Magar boqib quyoshim yuziga ko‘zi qamoshibdur.

Beniqob ul mahliqoni toki ko‘rdi, har kecha,

Infiolidin quyosh er ostida pinhon erur.

Ogahiy lirikasida sevgi bilan bog‘liq bo‘lgan har qanday tuyg‘u kechinmalar asosan ikki obraz: oshiq va ma’shuqa obrazlari orqali ifodalanadi. Bu obrazlar oshiqning, shu bilan birga shoirning bu masalaga munosabati oshiqning sevgi bilan bog‘liq bo‘lgan turli kechinmalari: visol, hijron, firoq, rashk va shu kabi tuyg‘ularni ifodalash yo‘sinida ko‘rinadi. Ogahiyning "Yorima ayting" radifli g‘azalida ham shunday munosabatlar bayon etilgan. Dunyodagi barcha lazzatni, inson go‘zalligi va o‘z yorini sevgan, bu sevgiga butun borlig‘i bilan berilgan, nozik yurak to‘lqinlarini chuqur sezadigan, o‘z yoriga hattoki dardlarini aytishga haddi sig‘maydigan oshiq obrazi jonlantirilgan.

Ko‘nglum g‘amin, ey do‘stlarim yorima ayting,

Jonim alamin la’li shakarborima ayting.

Bu baytda birinchi baytdagi g‘oya davom ettiriladi. Koshki mening bu dardlarimni eshitib, rahm qilib, kulbanga kelsa, men uni zor bo‘lib kutishimni vafodoringa ayting deb murojaat qiladi. Uchinchi baytda esa oshiqning ma’shuqa vasliga intilishi tasvirlangan:

Istab gushai chashmin topa olmay,

Bemorliqdin ko‘zlari bemorima ayting.

Yorimning nigohini istadim, ammo ko‘z qirini ham topa olmadim. Bu yerda ma’shuqa oshiqqa nazar ham tashlamaganligi ifodalangan. Natijada oshiq ma’shuqaning bepisandligidan bemor bo‘lganligini va bu bepisand yorni “ko‘zlari xasta” deb ta’riflaydi.

Xulosa qilib aytganda, Ogahiy betakror lirikasi, undagi rango-rang tasvirlar orqali o‘z ijod namunalariga badiiy sayqal berdi va o‘zbek adabiyotining rivojiga ham katta hissa qo‘shdi, ayniqsa, she’riyatimizni behad yuksaltirdi. Ijodkor asarlari bugungi kunda o‘z mavqeyini yo‘qotmagan va kitobxonlar tomonidan sevib o‘qib kelinmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Lapasov J. Mumtoz adabiy asarlar o.,quv lug.,ati. – T.: O.,qituvchi, 1994. Ogahiy.
2. Asarlar.1-jild.– T.: G.,afur G.,ulom nomidagi adabiyot va san’at, 1972.
3. Yo‘ldoshev R. Ogahiy leksikasi bo.,yicha kuzatishlar // O.,zbek tili va adabiyoti, 2007. – №2. – B.72-75.
4. Tojinazarova H. Ogahiy lirikasining badiiy-lisoniy tahlili // Til va adabiyot ta’limi, 2010. – №6 – B.22-25.
5. T.Matyoqubova. Ogahiy she’riyatida an’anaviy obrazlar talqini. -T.: 2001.